



UY QUSHLARI VA PARRANDALARNING GELMINTLAR BILAN ZARARLANISHIDA KAPTARSIMON QUSHLARNING O'RNI VA AHAMIYATI

Akmuradova Leyla Guvanchovna

Termiz shahar 3-maktab biologiya fani o'qituvchisi,
mustaqil tadqiqotchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7491069>

ARTICLE INFO

Received: 18th December 2022

Accepted: 27th December 2022

Online: 28th December 2022

KEY WORDS

Biotsenoz, gelmint, qushlar, migratsiya, kaptarsimonlar, gelmintoz, Raillietina tetragona, Skrjabina cesticillus, Ascaridia galli, Columba livia.

ABSTRACT

Tabiiy biosenozda yovvoyi qushlar asosan migratsiya va oziqlanish muhitiga binoan mahalliy qushlar va parrandalar bilan o'zaro munosabatida bevosita yoki bilvosita gelmintlar migratsiyasini amalga oshiradi. Jumladan, kaptarsimonlar turkumi qushlari sinantrop hisoblanib, uy qushlariga gelmintlarni yuqtirishidagi ahamiyati olib borilgan tadqiqotlarda isbotlangan.

Biotsenozlarda ko'plab yovvoyi qushlar yashash joylarini o'zgartirishi, migratsiyasi, oziqlanish munosabatlariga ko'ra yovvoyi va uy qushlari o'rtasida gelmintlarning tarqalishi va aylanishiga sabab bo'ladi. Uy parrandalarining gelmintlar bilan zararlanishida yovvoyi qushlar, jumladan, kaptarsimonlar turkumi qushlari turlarining ishtiroki haqida ko'plab ma'lumotlar ilmiy manbalarda asoslangan. O'zbekistonning tabiiy biotsenozida qulay iqlim sharoitining mavjudligi ko'plab qushlarni turlar soni jixatidan ortishiga sabab bo'layotganligi va buning isboti sifatida aksariyat ba'zi qushlarning sinantrop turlarga aylanganligini, urbanizatsiyalashgan hududlarda ularning keng tarqalganligini ko'rishimiz mumkin. Shu bilan birga mavsumiy haroratning yuqori bo'lishi, oraliq xo'jayin turlarining tabiiy landshaftlarda ko'plab sonda uchrashi, ularning populyatsiya sonini ortishiga sabab bo'ladi, bu esa definitive xo'jayinning gelmintozlar bilan zararlanishi uchun


manba bo'lib xizmat qiladi. Adabiyotlardagi ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonning yovvoyi va uy qushlarida parazitlik qiluvchi gelmintlarning 53 turi aynan quruqlikdagi qushlarda uchrashi va keng tarqalganligi qayd etilgan [3;4;5]. Shundan 23 turi og'ir gelmintozlarni qo'zg'atuvchilar bo'lib, respublikamiz parrandachiligiga katta iqtisodiy zarar yetkazadi. Yovvoyi qushlar tarqatadigan 23 tur gelmintlarni sinflar kesimida tahlil qilganda sestoda sinfiga 9 tur, trematoda sinfiga 5 tur va nematoda sinfiga 9 tur kirishi tadqiqotlarda o'rganilgan va asoslangan. Ular qatorida kaptarsimonlar turkum qushlaridan yovvoyi ko'k kaptarlar tovuqlarga sestodalardan *Raillietina tetragona*, *Skrjabina cesticillus*, nematodalardan *Ascaridia galli*, *Ascaridia alectoris* turlarini yuqtirishi aniqlangan [6]. К.И.Скрябин hayoti davomida amalga oshirgan 320 dan ortiq ekspeditsiyalarida sinantrop qushlar gelmintlarning tarqalishida muhim rol o'ynagani qayd etilgan. Sinantrop qushlarni gelmint sinflari bilan zararlanishi tahlil



qilinganda uy qushlariga nematodalarni tarqatishda manba ekanligi ma'lum bo'lib, umumiy zararlanish 63,1 % ga yetgan. Gelmintozlarning sestodalar sinfiga mansub turlari ham uy, ham sinantrop qushlarda topilgan bo'ib, uy qushlaridan kurka va g'ozlar ko'proq kasallangan. Tovuqlarning zararlanishi 48,1% ni tashkil etgan [1; 8]. Urbanizatsiyalashgan hududlardagi tahliliy natijalar va ilmiy manbalarning tahlili shuni ko'rsatadiki kaptarsimonlar turkumi qushlarida keng tarqalgan gelmintlar oilasiga sestodalar sinfidan Davaineidae oilasining Raillietina tetragona, Raillietina echinobothrida, Raillietina cesticillus, nematodalar sinfidan Ascaridiidae oilasining Ascaridia galli, Ascaridia columbae, Heterakis gallinarum, Capillariidae oilasining Capillaria obsignata, Capillaria columbae, Capillaria caundinflata, Syngamidae oilasining Syngamus trachea turlari dunyo bo'yicha barcha mintaqalarda uchrashi dunyo olimlarining ilmiy tadqiqotlarida asoslangan. Xususi parrandachilik xo'jaliklarida eng ko'p uchraydigan gelmintlar Ascaridia galli, Heterakis gallinarum, Syngamus trachea, Capillaria obsignata, Raillietina tetragona turlari

ekanligi shundan singamus va kapillyariyalar yuqori zararlanish darajasida bo'lib, yil fasllari bo'yicha yoz oyida zararlanishning yuqori ekstensivligi va intensivligi kuzatilgan. Asosan ma'lum bir biosenozda tabiatdagi erkin hayot kechiradigan qushlar don yoki maishiy chiqindilar bilan oziqlantiriladigan uy qushlari bilan birga ovqatlanadilar. Buning natijasida gelmintlar migratsiyasi amalga oshishi, uy qushlarining gelmintozlar bilan zararlanishi kuzatilib shundan yuqori darajali invaziyani geterakidoz, kapillyariya va rayelitnoz bilan zararlanishini aniqlanib, invaziyaning ekstensivligi 100% ni tashkil etgan [1; 2; 5; 6; 8]. Shu jihatdan ushbu qushlar parrandalar yetishtiriladigan qishloq aholi punktlarida ushbu gelmintozlarni saqlash va tarqatishning asosiy manbai hisoblanadi.

Atrof-muhit sharoitlari, ozuqalarining umumiy o'xshashligi bois yovvoyi qushlar qatorida kaptarsimonlar turkumi qushlar faunasi gelmintlarning tabiiy biotsenozda aylanishida uchta ekologik guruh asnosida parazitlarning tarqalishi va almashinuvida ishtirok etadi.



Tabiatda qushlarning gelmintlar migratsiyasidagi o'zaro bog'lanishlari

I – uy qushlari (tovuq, kurka, g'oz, o'rdak)

II – doimiy sinantrop (kaptar, musicha, chumchuq)

III – shartli sinantrop (ko'k g'oz)



II guruh qushlari ma'lum sharoitlarda uy hayvonlari bilan aloqada bo'lib, hayotlarining ko'p qismida majburiy ravishda sinantrop bo'lib, guruhlar o'rtasidagi doimiy aloqa va invaziya boshlanishining almashinuvida ishtirok etadi. Doimiy sinantrop qushlar qatorida kaptarsimon qushlar turkumining *Columba livia* turi gelmintlarning katta qismini asosiy saqlovchilari va tarqatuvchilari hisoblanib, *Prostogonimus ovatus*, *Echinostoma revolutum*, *Heterakis gallinarum*, *Syngamus trachea*, *Capillaria*

osdignata, *Capillaria* *coudinflata* qo'zg'atuvchilaridir [1].

Shunday qilib, uy parrandalarining gelmintlar bilan zararlanishida yovvoyi qushlar roli va ahamiyati keying yillarda ortib bormoqda. Ko'pchilik yovvoyi qushlarning doimiy yashash joyi, oziqlanishi, tunash joylariga to'planishi odam foydalanadigan xo'jaliklariga yaqin joylar hisoblanadi. Bu esa gelmintoz kasalliklarning uy parrandalariga tarqalishida asosiy zararlanish manbai sanaladi.

References:

1. Дзармотова З.И., Плиева А.М. Экологические особенности распространения гельминтов синантропных птиц // Журнал Экология животных. Москва. № 2. 2012. С. 37-41.
2. Дзармотова З.И. Гельминтофауна и экологические особенности распространения гельминтозов домашних и синантропных птиц горной и равнинной части Центрального Кавказа. Авт. Канд. Диссертация-2021. С
3. Дубинина М.Н. Паразитологическое исследование птиц // Ленинград. Наука 1971. 140 с.
4. Дубинина М.Н. Состояние и очередные задачи систематики ленточных червей (CESTOIDEA RUD., 1808) // Журнал. Паразитология VIII, 1974.С. 281.
5. Тангиров Х.Т. Экологический мониторинг гельминтов массовых видов диких и домашних птиц Узбекистана. // Афтореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата биологических наук. Ташкент-1993.26.с.
6. Tangirova N.X., Saparov Q.A., Tangirov X.T. O'zbekistonning janubiy hududlaridagi tovuqsimonlar (Galliformes) ning gelmintofaunasi. // Monografiya. Termiz-2021, 110 b.
7. Senlik. B., Gulegen., Akyol. V. Effect of age, sex and season on the prevalence and intensity infections in domestic pigeons (*Columba livia*) from Bursa province, Turkey. // Acta Veterinarinaria Hungarica. 2005. 53 (4), pp 449-456.
8. Ксавьера Ф.Ч. Паразитозы кур и разработка лечебно-профилактических мероприятий в условиях крестьянско фермерских хозяйств Краснодарского края. Диссертация на соискание ученой степени кандидата ветеринарных наук. // Краснодар-2021. 195 с.